

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI  
PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI**

**TUXTASINOVA ZILOLA MUKUMOVNA**

**O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA “HAQORAT” KONSEPTINING  
IFODALANISHI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik  
va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

UO‘K : 811.512.133'366.552  
811.111'366.552

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on  
philological sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Тухтасинова Зилола Мукумовна**

O‘zbek va ingliz tillarida “haqorat” konseptining ifodalanishi ..... 3

**Tukhtasinova Zilola Mukumovna**

Expression of the concept of “insult” in Uzbek and English languages ..... 23

**Тухтасинова Зилола Мукумовна**

Выражение концепта «оскорбление» в узбекском и английском языках..... 43

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

List of published works

Список опубликованных работ..... 48

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI  
PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI**

**TUXTASINOVA ZILOLA MUKUMOVNA**

**O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA “HAQORAT” KONSEPTINING  
IFODALANISHI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik  
va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**



## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligida muayyan nutqiy diskurslarda til birliklarining voqelanishi bilan bog‘liq tadqiqotlar ko‘lami kun sayin kengayib bormoqda. Bugungi kunda asosiy e‘tibor kommunikatsiyaning har qanday birliklarini tadqiq etish, o‘zaro aloqasini o‘rganish, tahlil etishga qaratilmoqda. Jonli nutq birliklarining pragmatikasini o‘rganish globallashuv jarayonida madaniyatlararo muloqotni ta‘minlash uchun zarur. Ana shu zarurat turli tizimdagi tillarda nutqiy faol konseptlar tahliliga bag‘ishlangan tadqiqotlarga ehtiyojni oshirmoqda.

Dunyo tilshunosligida muayyan konseptning o‘zga tillar bilan qiyosan o‘rganish uning mohiyatini va voqelanishini yanada chuqur ochib berishi nazarda tutiladi. Jonli muloqotning har qanday ishtirokchilari lisoniy bahosini olishi muloqotchilarning o‘zaro tushunishi, nutqiy intensiyalarini amalga oshirishini mukammallashtirish uchun zarurdir. Shuningdek, bu tipdagi tadqiqotlar tilning amaliy qo‘llanishiga doir lug‘at va qo‘llanmalarning yaratilishiga nazariy asos bo‘ladi.

Istiqloq yillarida turli sohalarga doir, jumladan, tilshunoslikda ham ijtimoiy-iqtisodiy samarador yo‘nalishlar tadqiqiga katta e‘tibor berilmoqda. Binobarin, «Barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni innovatsion rivojlanishsiz, keng ko‘lamli ilmiy-texnik kooperatsiyasiz va yangi texnologiyalar, ilm-fan va texnika yutuqlarini joriy etmasdan tasavvur qilib bo‘lmaydi»<sup>1</sup>. O‘zbek tilshunosligida muayyan konsept va konseptosfera tadqiqiga doir ana shunday amaliy filologik tadqiqotlar ko‘lami kengayib bormoqda. Konsept hodisasiga bag‘ishlangan tadqiqotlar mamlakatimiz tilshunosligida ko‘p bo‘lsa-da, “haqorat” konseptining nazariy va amaliy jihatlari o‘zbek tilshunosligida chog‘ishtirma aspektida tadqiq etilmagan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 12-iyundagi PF-4732-son “Oliy ta‘lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2016-yil 13-maydagi PF-4794-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”, 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” farmonlari hamda 2012-yil 10-dekabrdagi PQ-1875-son “Chet tillarni o‘rgatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-maydagi 312-son “Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд.– Т.: Ўзбекистон, 2017. – Б. 35-36.

to'g'risida"gi qarori va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu ilmiy tadqiqot ma'lum darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining: I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajariladi.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Konsept zamonaviy tadqiqotlarning yetakchi obyekti bo'lib qolgani bejiz emas, albatta. Chunki zamonaviy tadqiqotlarning pragmatik tusi buni taqozo qilmoqda. Bunday ishlar qatoriga jahon tilshunosligida G.Hughes, G.Lakoff, M.Johnsen, B.Mathew, A.Illendula, P.Saha, S.Sarkar, P.Goyal, A.Mukherjee, V.Evans, M.Green, rus tilshunosligida Yu.S.Stepanov, I.A.Sternin, V.I.Shaxovskiy, S.G.Vorkachev, L.E.Kuznetsova, G.V.Kusov, Yu.D.Polinichenko, M.A.Xizova, o'zbek tilshunosligida I.Qo'chqortoyev, A.E.Mamatov, Sh.T.Maxmaraimova, Sh.Safarov, G.Toirova kabi olimlar tomonidan bajarilgan tadqiqotlar<sup>2</sup>ni kiritish mumkin. Haqorat bildiruvchi til birliklari nutqda juda faol bo'lsa-da, bu boradagi tadqiqotlar ko'p emas. Til birliklari turli diskurslarda turlicha namoyon bo'ladi. Rus olimi G.V.Kusov diskurs tahlili asosida rus tilidagi "haqorat" tushunchasining kundalik turmushdagi, diniy va huquqiy ongdagi mazmunini ochib bergan<sup>3</sup>. Nutq madaniyati, keyingi davrda katta qiziqish uyg'otayotgan lingvistik ekspertizaga doir tadqiqotlarda me'yoriy bo'lmagan nutq tahliliga katta e'tibor berilayotgan bo'lsa-da, aynan "haqorat" konsepti monografik tadqiqiga yo'naltirilgan ishlar keng tarqalmagan. Haqorat illokutiv konsept sifatida G.V.Kusov va K.X.Musulmonova ishlari<sup>4</sup>da, haqoratning lisoniy hodisa sifatidagi muloqot madaniyatidagi o'rni

<sup>2</sup> Hughes G. Encyclopedia of Swearing: The Social History of Oaths, Profanity, Foul Language, and Ethnic Slurs in the English-Speaking World. – New York: M. E. Sharpe, 2006. – 573 p. <https://archive.org/details/encyclopediaofs/w0000hugh/mode/2up> (murojaat sanasi 20.12.2023) Lakoff G., Johnsen M. Metaphors we live by. – Chicago: The University of Chicago Press, 1980. – 242 p. Mathew B., Illendula A., Saha P., Sarkar S., Goyal P. & Mukherjee A. *Hate begets hate: A temporal study of hate speech*. Ithaca: Cornell University Library, arXiv.org. Retrieved from <https://www.proquest.com/working-papers/hate-begets-temporal-study-speech/docview/2296986584/se-2>. (murojaat sanasi 24.07.2023) Evans V. & Green M. Cognitive linguistics: An Introduction. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2006. – 830 p. Степанов Ю.С. Концепты. Тонкая пленка цивилизации. – Москва: Языки славянских культур, 2007. – 248 с. <https://www.litres.ru> (murojaat sanasi 24.07.2023) Стернин И.А. Значение слова и его компоненты (методическое пособие). Сост. И.А. Стернин. - Воронеж, 2003. – 19 с. Шаховский В.И. Голос эмоций в языковом круге *homo sentiens*. – Москва: Книжный дом «Либроком», 2012. – 144 с. Воркачев С.Г., Кузнецова Л.Э., Кусов Г.В., Полиниченко Ю.Д., Хизова М.А.. Лингвокультурный концепт: типология и области бытования (монография). – Волгоград: ВолГУ, 2007. – 400 с. Қўчқортқоев И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги (ўзбек тилидаги нутқ феъллари материали асосида). – Тошкент: Фан, 1977. – 168 б. Mamatov A.E. Zamonaviy lingvistika (o'quv qo'llanma). – Toshkent: Noshir nashriёти, 2019. – 168 b. Махмараймова Ш.Т. Ўзбек тили теоморфик метафораларининг қисқача концептуал луғати. –Тошкент, Чўлпон номидаги НМИУ, 2018. – 100 б. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор нашриёти, 2006. – 92 б.Сафаров Ш. Тоирова Г. Нутқнинг этносоциопрагматик таҳлили асослари (ўқув қўлланма). – Самарканд, СамДЧТИ нашри, 2007. – 39 б.

<sup>3</sup> Кусов Г.В. Оскорбление как иллокутивный лингвокультурный концепт: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. –Волгоград, 2004. –32 с. – С. 5.

<sup>4</sup> Кусов Г.В. Оскорбление как иллокутивный лингвокультурный концепт: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. –Волгоград, 2004. –32 с. – С. 6. Musulmonova K.X. O'zbek tili yozma matnlarini lingvistik ekspertiza qilish jarayoni, bosqichari va metodlari: filol. fanl. bo'yicha fals. dokt... diss. – Toshkent, 2021. – 136 b. – B. 86.

V.I.Jelvis, Yu.A.Pozolotin, I.I.Pribitok, A.R.Ratinov, G.V.Dmitriyenko, A.S.Maslov ishlari<sup>5</sup>da tadqiq qilingan. O‘zbek tilshunosligida keyingi davrda lingvistik ekspertiza borasida olib borilgan amaliy tahlillarda haqorat so‘zlarning aktual tavsifiga doir qiziqarli kuzatishlar yuzaga kelmoqda va nafaqat tilshunoslar, balki jamoatchilik e’tiborini ham tortmoqda<sup>6</sup>.

Bunday qiziqish haqorat bildiruvchi til birliklarining izohli va tarjima lug‘atlar tuzish zaruratini ko‘rsatadi. Ingliz tilidagi ko‘plab lug‘atlarda “haqorat” semali birliklar aks etgan<sup>7</sup>. Biroq o‘zbek tilshunosligida bu yechimini kutayotgan masaladir.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya Andijon davlat chet tillari institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaloriga muvofiq “Innovatsiyalarni ingliz tili va adabiyoti talim tizimida joriy etishning muammo va yechimlari” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** o‘zbek va ingliz kommunikativ madaniyatida “haqorat” konseptining milliy xususiyatlarini aniqlash, pragmatik xususiyatlarini va ularni ifodalash usullarini ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

konsept borasidagi tadqiqotlarni o‘rganish va haqoratning konseptual tavsifini berish;

tilning turli sathlaridagi haqorat ifodalovchilarini yig‘ish va tahlil qilish;

o‘rganilayotgan ingliz va o‘zbek lisoniy madaniyatlarda haqorat va yondosh nutqiy harakatlarini tasniflash;

haqoratning milliy o‘ziga xosligini va haqoratning nutqiy ta’sirini tavsiflash;

haqoratning frazeologik birliklarda voqelanishini tadqiq etish;

ingliz va o‘zbek tillarida “haqorat” konseptining mentalital-pragmatik xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

---

<sup>5</sup> Жельвис В.И. Матерятся все?! Роль брани в истории мировой цивилизации. – Москва: Издательство АСТ, 2022. – 33 с. Жельвис В.И. Инвектива: опыт тематической и функциональной классификации. // Этнические стереотипы поведения. Под редакцией А.К. Байбурина. – Ленинград: Наука, 1985. – 325 с. Позолотин Ю.А. Ругательства как лингвистический феномен // Аксиологическая лингвистика: проблемы коммуникативного поведения: Сб науч. тр. – Волгоград: Перемена, 2003. – С. 68-72. Прибыток И.И. Дискуссионные моменты теории непрямо́й коммуникации лингвокультуры // Прямая и непря́мая коммуникация: Сб. науч. статей. Саратов: Изд-во ГосУНЦ «Колледж», 2003. – С. 16-26. Ратинов А.Р. Послесловие юриста. Когда не стесняются в выражениях // Понятие чести и достоинства, оскорбления и ненормативности в текстах права и средств массовой информации / Леонтьев А.А., Базылев В.Н., Бельчиков Ю.А. и др. М.: Фонд защиты гласности, 1997. – 128 с. Дмитриенко Г.В. Вербальная инвектива в англоязычном лексическом субстандарте. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. –Пятигорск, 2007. –20 с. – С. 17. Маслов А.С. Зоометафоры-инвективы в современном русском языке (экспериментальное исследование). Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. –Белгород, 2014. –23 с. – С.7.

<sup>6</sup> <https://www.facebook.com/100046431623110/posts/pfbid0Wro2JMV1> (murojaat sanasi 20.12.2023)

<sup>7</sup> Longman Collocations dictionary and Thesaurus: for intermediate-advanced learners. – Harlow: Pearson Education Ltd., 2013. – 1472 p. Davies M. & Gardner D. A frequency dictionary of contemporary American English: word sketches, collocates and thematic lists. – USA: Routledge, 2010. – 351 p. Oxford dictionary of idioms. – USA: Oxford University Press, 2004. – 340 p. Oxford dictionary of quotations. – London: Geoffrey Cumberlege / Oxford University Press, 1953. – 1003 p. // <https://archive.org/details/in.ernet.dli.2015.133533/mode/2up>. (murojaat sanasi 05.10.2023) Pocket Oxford English Dictionary. – New York: Oxford University Press Inc., 2005. – 1081 p. Richard A. Spears. Mc Graw-Hill’s Dictionary of American Idioms and Phrasal Verbs. – New York: The McGraw-Hill Companies, Inc., 2005. – 1098 p. // [https://zlibrary-sng.se/\(murojaat sanasi 07.09.2023\)](https://zlibrary-sng.se/(murojaat%20sanasi%2007.09.2023)) The New Oxford American dictionary / Edited by Elizabeth J.Jewell, Frank Abate. – New York: Oxford University Press, 2001. – 2023 p.

**Tadqiqotning obyektini** o‘zbek va ingliz tillaridagi “haqorat” konseptini ifodalovchi til birliklari tashkil etadi.

**Tadqiqotning predmeti** o‘zbek va ingliz tillarida “haqorat” konseptining kognitiv, semantik va pragmatik xususiyatlaridir.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya mavzusini yoritishda chog‘ishtirma, differensial-semantik, komponent tahlil, kontekstual va konseptual tahlil metodlaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

haqorat asosiy tushuncha sifatida yondosh tushunchalar tahqir, so‘kish, tanqid, ta’na-dashnom, tuhmat, masxaralash, istehzo kabilar bilan birga tub, rivojlanayotgan, muqim va birlamchi xususiyatlarga ega konseptni tashkil etishi ochib berilgan;

o‘zbek va ingliz tilida fe‘l-atvor, tashqi ko‘rinish, dunyoqarash/e‘tiqod, odat, aql-farosat, kasbi/bandligi, kelib chiqishi/yashash joyi/millati, jamiyatdagi mavqei, malaka/qobiliyat, tana tuzilishi, qiziqish, umumiy jihat (alohida jihatiga qaratilmagan), jinsi va jinsiy orientatsiyasi, kishilar guruhiga qaratilgan haqoratlar ifodasida ikki tilning bir-biriga pragmatik, intensional, yo‘nalishga oid o‘xshash va farqli tomonlari aniqlangan;

ingliz tilida haqorat nomini va jarayonini birdek ifodalovchi affront, abuse kabi so‘zlarga oid gibridlik o‘zbek tili uchun xos emasligi aniqlangan;

bir mazmunli asosdan yasalgan haqorat ifodalovchi so‘zlar ingliz va o‘zbek mentalitetidan kelib chiqib turli ma’no ifodalashi (“lo‘lilik qilmoq” – janjalkash bo‘lmoq; “to gyp” – aldamoq) dalillangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

oliy o‘quv yurtlarida umumiy, qiyosiy, ingliz va o‘zbek tilshunosligi, tarjimashunoslik, kommunikativ lingvistika bo‘yicha darsliklar yaratish hamda ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarning mukammallashuviga xizmat qiladigan materiallar yig‘ilgan;

haqorat ifodalovchilarining pragmatik-funksional xususiyatlariga oid materiallardan pragmalingsvistika, sotsiolingsvistika, leksikologiya, semasiologiya, leksikografiya va terminologiya kabi fanlarni o‘qitishda unumli foydalanish mumkinligi ko‘rsatib berilgan;

dissertatsiya natijasida olingan xulosalar “haqorat” konsepti ifodalovchilarining lug‘atlarda aks etishi masalalarini hal etishda muhim ahamiyat kasb etishi dalillangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-uslubiy va ilmiy-amaliy konferensiyalarda qilingan ma’ruzalar, OAK ro‘yxatidagi maxsus jurnallarda chop etilgan maqolalar, xulosalar, taklif hamda tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati lingvomadaniy, pragmatik va kognitiv munosabatlar, til tashuvchisi tafakkuridagi olam lisoniy manzarasining nutqda ifodalanishi, haqorat va uning qator turlari ifodalovchilarini monografik plandagi chog‘ishtirma tadqiqotlar uchun asos bo‘la olishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, dissertatsiyaning xulosalari va materiallari muloqot odati, nutq madaniyati, madaniyatlararo muloqot, tarjimashunoslikka doir qo‘llanma va lug‘atlar uchun muhim manba bo‘ladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O‘zbek va ingliz tillarida “haqorat” konseptining ifodalanishini tadqiq etish bo‘yicha olingan natijalar asosida:

o‘zbek va ingliz tilida fe‘l-atvor, tashqi ko‘rinish, dunyoqarash/e‘tiqod, odat, aql-farosat, kasbi/bandligi, kelib chiqishi/yashash joyi/millati, jamiyatdagi mavqei, malaka/qobiliyat, tana tuzilishi, qiziqish, umumiy jihat (alohida jihatiga qaratilmagan), jinsi va jinsiy orientatsiyasi, kishilar guruhiga qaratilgan haqoratlar ifodasida ikki tilning bir-biriga pragmatik, intensional, yo‘nalishga oid o‘xshash va farqli tomonlari o‘ziga xosligiga oid qarashlaridan Andijon davlat universitetida bajarilgan “OT-F1-18. Ommaviy lisoniy madaniyatni shakllantirish metodlar va metodologiyasini ishlab chiqish” davlat fundamental-tadqiqot dasturlari doirasidagi loyihada foydalanilgan (Andijon davlat universitetining 2024-yil 9-yanvardagi 39-01-46-son ma‘lumotnomasi). Natijada muloqot odatida haqoratning lingvokulturologik va lingvopragmatik jihatlar tavsifi ilmiy jihatdan boyitilgan;

haqorat asosiy tushuncha sifatida yondosh tushunchalar tahqir, so‘kish, tanqid, ta’na-dashnom, tuhmat, masxaralash, istehzo kabilar bilan birga tub, rivojlanayotgan, muqim va birlamchi xususiyatlarga ega konseptni tashkil etishi borasidagi, o‘zbek tilida zillat, ihonat so‘zlari bilan ifodalangan “haqorat” konsepti ifoda imkoniyatlari bugunga kelib haqorat, kamsitish, so‘kish, dashnom berish kabi so‘zlar bilan, ingliz tilidagi haqorat insult, foul language, bad words iboralari bilan ifodalangan “haqorat” konsepti ifoda imkoniyatlari hozirda racial slur, invective, put-down kabi yangi ifodalar bilan boyishi har ikki tilda ham “haqorat” konsepti rivojlanayotgani va qamrovi kengayotgani borasidagi xulosa va natijalardan kontekstual va perlokutiv ta’sir samaradorligi, asosan, kommunikativ maqsad-muddaoning konstativ guruhiga mansubligi, unda nutqiy akti ifodalovchi kinoya, kesatq kabi intensional tuslar namoyon bo‘lishiga oid qarashlardan Andijon davlat universitetida 2022-2023 yillarda bajarilgan “№ IL – 402104213. O‘zbek tilida elektron lingvistik ensiklopedik lug‘at ishlab chiqish” da davlat innovatsion-tadqiqot dasturlari doirasidagi loyihada foydalanilgan (Andijon davlat universitetining 2023-yil 9-yanvardagi 39-01-47-son ma‘lumotnomasi). Natijada nutqiy janrlarda lingvokulturologik va lingvopragmatik jihatlar tavsifi o‘zbek va ingliz tillaridagi materiallar tahlili asosida boyitilgan;

tilning turli sathlaridagi haqoratni ifodalovchi lisoniy birliklarni baholash, haqoratning ta’rifi, jumladan, haqoratning jinoyat sifatidagi ta’rifi, o‘rganilayotgan tillarda haqoratning ifodalanishi, haqoratning milliy o‘ziga xosligini tavsiflash, o‘zbek va ingliz tillarida “haqorat” konseptini ifodalovchi leksik-frazeologik birliklar, haqorat turlarini aniqlash borasidagi xulosa va natijalaridan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanali “DM Ma’naviy-ma’rifiy va badiiy eshittirishlar” muharririyati tomonidan tayyorlangan “Ta’lim va taraqqiyot”, “Millat va manaviyat”, “Adabiy jarayon” nomli dasturlarning 2023 yil may va oktabr oylari sonlari senariysida foydalanilgan. (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2024-yil 10-iyuldagi 04-36-826-son ma‘lumotnomasi). Natijada tadqiqotda ilgari surilgan qator taklif va tavsiyalar, yangiliklar asosida

ta'lim hamda madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan nazariy va amaliy ishlarni yanada samarali tashkil etishga hizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 7 ta ilmiy ish nashr ettirilgan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta ilmiy maqola (ulardan 1 tasi xorijiy jurnalda) chop qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 156 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "**Kirish**" qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning maqsad-vazifalari, predmeti va obykti aniqlangan. Tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilib, uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslanib, ishning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi ko'rsatilgan.

**Dissertatsiyaning birinchi bobi "O'zbek va ingliz tillarida "haqorat" konseptosferasi tadqiqining nazariy masalalari" deb nomlanib quyidagi qismlardan iborat: "O'zbek va ingliz tillarida "haqorat" konseptosferasiga berilgan ta'riflar tahlili", "Haqorat konsept sifatida", "Haqoratning nutq janrlarida aks etishi", "Haqorat turlari".**

Insonlar bir-biri bilan o'zaro muloqot qilar ekan, voqelikka va suhbatdoshga o'z munosabatini bildiradi. Verbal yoki noverbal tarzda ifodalangan bunday munosabatlar orasida salbiylari ham mavjud. Nutqda norozilik va tajovuzning ifodasi sifatida haqorat so'zlar yuzaga chiqadi.

Jamiyatda kishilar til orqali nutqiy tajovuzni kamaytirishlari yoki kuchaytirishlari mumkin. Haqorat insonning tashqi ko'rinishiga, insoniy sifatleri, hulq-atvori, diniy e'tiqodi... yo'nalgan bo'lishi mumkin. Haqorat umuminsoniy qadriyatlarni, ahloqiy me'yorlarni buzadi. Ahloqiy me'yorlar jamiyatning madaniy qadriyatlari tizimi orqali shakllanadi. Ular zamonlar osha o'zgarib boradi, jamiyatda u yoki bu narsaning taqiqlanishi insonlar ongidagi ijtimoiy taqiq haqidagi fikrlarni o'zgartiradi.

"Haqorat" konseptini tadqiq etishda Z.D.Popova va I.A.Sterninlar tomonidan taklif etilgan konseptning nominativ maydonini aniqlashdan boshlaymiz<sup>8</sup>. Mazkur usul bo'yicha, avvalo, tadqiqotchi o'rganilayotgan konseptning ma'nosini kengroq ochib beradigan, nutqda ko'p qo'llaniladigan, ko'p ma'noli va stilistik jihatdan neytral bo'lgan leksik birlikni, ya'ni nominativ maydonning kalit so'zini tanlab

---

<sup>8</sup> Попова З.Д., И.А. Стернин. Когнитивная лингвистика. – Москва: АСТ: Восток –Запад, 2007. – 314 с. – С. 177.

olishi kerak. Tadqiqotimizning obykti bo‘lgan “haqorat” konsepti nominativ maydonining kalit so‘zi bu – o‘zbek tilida “haqorat” hisoblanadi. O‘zbek tili lug‘atlarini yaratishdan maqsad turlicha bo‘lgani kabi “haqorat” so‘ziga berilgan ta’riflar ham bir-biridan birmuncha farq qiladi. Dissertatsiyada bir qator shunday ta’riflar o‘rganib chiqilgan va muayyan xulosalarga kelingan. **Haqorat tajovuzkor nutq yordamida tinglovchining ruhiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatish, uning ijtimoiy mavqeini pasaytirishga qaratilgan nutq harakatidir.** So‘zning ta’sir kuchi gapiruvchi tomonidan oldindan belgilab olinadi. Haqorat qilingan taqdirda, ya’ni kamsituvchi nutqning og‘zaki bayonidan so‘ng, so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasida kommunikativ aloqa o‘rnatiladi, ular ongida haqorat to‘g‘risida mushohada yuritiladi.

Haqorat qilish har doim muayyan bir shaxsga qaratilgan bo‘ladi. Muayyan bir shaxsga qaratilmasdan aytilgan uyatsiz-beodob so‘zlar va shu kabi xatti-harakatlar bezorilik deb baholanishi mumkin<sup>9</sup>. Ushbu ta’rif asosida haqoratning boshqa tajovuzkor usullardan ajratib turadigan belgisini aniqladik. Bu ham bo‘lsa, uning ma’lum bir shaxsga qaratilgan bo‘lishidir. Verbal haqorat adresatning adresantga qarata uning sha’ni, qadr-qimmatini, hurmatini pasaytirish maqsadida yo‘llagan nutqi asosida yuzaga chiqadi.

Haqoratning ta’rifiga din nuqtai nazaridan yondashilganda, har ikki til egalari e’tiqod qiluvchi dinda uyqash jihatlarni kuzatildi<sup>10</sup>.

Shunday qilib, o‘zbek tilida haqoratga berilgan ta’riflar asosida quyidagi xulosalar kelib chiqadi: haqorat – kishining or-nomusi, shaxsiyatini pastga uradigan, tahqirlovchi ma’no-mazmunli so‘z, gap; haqorat – shaxsning sha’ni va qadr qimmatini beodoblik bilan qasddan tahqirlash jarayoni, shunday ma’no-mazmunli muomala, xatti-harakat, holat; haqorat bu jinoyat bo‘lib, haqoratlovchi qonuniy jihatdan jazolanishi kerak; haqorat qilish islom dinida taqiqlangan bo‘lib, haqorat kishining e’tiqodiga putur yetkazadi.

Ingliz tilidagi “insult” so‘zi o‘zbek tiliga “haqorat, haqorat qilmoq” deb tarjima qilinadi<sup>11</sup>. “Insult” so‘zi lotin tilidagi insultare (сақрамоқ) fe’lidan kelib chiqqan. U “ustiga, tepasiga” ma’nosini bildiruvchi in- prefiksi va saltire “sakrab o‘tmoq” fe’lining birikishidan hosil bo‘lgan so‘zdir. Ingliz tilidagi “insult” so‘zining birinchi ma’nolaridan biri “harbiy hujum qilish” bo‘lgan. So‘zning bu ma’nosi hozirda eskirgan bo‘lib, “insult” qurol bilan emas, nafrat yoki hurmatsizlik so‘zlari bilan birovga hujum qilish ma’nosini anglatadi. Dissertatsiyada ingliz tiliga oid “Pocket Oxford English Dictionary”, “Oxford Advanced Learner’s Dictionary”, “Longman Collocation Dictionary and Thesaurus” kabi lug‘atlarda bu tushuncha izohlari ko‘rib chiqilgan.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek va ingliz tillarida haqorat, asosan, diniy, lisoniy, huquqiy – uchta diskursda ta’riflanadi.

<sup>9</sup> Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 11-жилд. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2005. – 608 б. – Б. 324.

<sup>10</sup> Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Иймон. – Тошкент.: Hilol-Nashr, 2023. – 368 бет. – Б. 339. Bible. Old Testament// [https://thekingsbible.com/Bible/46/10?verse=32\(murojaat sanasi 12.04.2022\)](https://thekingsbible.com/Bible/46/10?verse=32(murojaat%20sanasi%2012.04.2022))

<sup>11</sup> Butayev Sh. English-Uzbek, Uzbek-English dictionary: 80 000 words and expressions. – Toshkent: “O‘qituvchi” NMIU, 2013. – 880 b. – B. 387.

“Haqorat” konsepti turli lisoniy vositalar orqali ifodalanadi. U tashqi tomondan soʻz, frazeologik birliklar, paremlar va tildagi boshqa hodisalar orqali ifodalanishi mumkin. Kishi ongida esa haqorat yoʻnalgan kishining or-nomusi toptalishi, ijtimoiy mavqeni pasaytirishga urinishni anglatuvchi mazmun yotadi. U oʻzida tajovuzli nutq aktini namoyon qiladi.

Berilgan fikrlar “haqorat” konseptining naqadar keng qamrovli, jamiyat va inson hayotidagi ahamiyatli tushuncha ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

“Haqorat” konseptini yanada yaxshiroq anglash uchun uning boshqa yondosh tushunchalardan ajratib turuvchi belgilarini oʻrganib chiqish zarur. “Haqorat” tushunchasining koʻlami “haqorat” konseptining koʻlamiga qaraganda tordir. Chunki, “haqorat” tushunchasida “haqorat” konseptidagi mavjud obrazlilik, metaforizatsiya, emotivlik, diskursivlik kabi xususiyatlar birgalikda jamlanmagan. Masalan, haqorat asosiy tushuncha boʻlgan holda, yondosh tushunchalar boʻlgan tahqir, soʻkish, tanqid, taʼna-dashnom, tuhmat, masxaralash, istehzo kabilar bilan birga “haqorat” konseptini tashkil etadi. Haqoratning inson salbiy his-tuygʻularini ifodalashi, bunday tuygʻularni yuzaga keltirishi bilan uning emotsional salmogʻi aniqlanadi. Haqoratning turli diniy, maishiy, huquqiy, badiiy matnlarda talqin etilishi uning diskursiv universalligini belgilab keladi. “Haqorat” oʻzbek va ingliz tillarida tub konsept hisoblanadi. Har ikki tilda ham bu konsept boshqa tillardan oʻzlashmagan, azaldan mavjud boʻlib kelgan.

Konsept strukturasi doimiylik belgisiga koʻra muqim (saqlangan) va transformatsiyalashgan turlarga ajratiladi. Muqim konseptning referenti yoʻqolishi yoki oʻzgarishiga qaramay, uning strukturasi tushunchaviy va qiymat qismi saqlanib qoladi. Transformatsiyalashgan konseptlarning referenti yoʻqolib, oʻrniga yangi realiyalar paydo boʻlgan boʻladi. “Haqorat” konseptining tuzilmasidagi tushunchaviy, obrazli va qiymat qismlari hech qanday oʻzgarishlarga uchramagan. Chunki bu konsept tarixiy davrlardan buyon bor va hozirgacha oʻz dolzarbligini yoʻqotmagan, referent qismini almashtirishga ehtiyoj ham boʻlmagan. Shu sababli ham muqim konseptdir.

Birlamchilik belgisiga koʻra konseptlar birlamchi va hosila konseptlarga boʻlinadi. Birlamchi konsept – asosiy konsept, hosila konsept esa undan hosil boʻlgan konseptdir. Oʻzbek tilida haqorat birlamchi konsept, uning hosilalari deb haqoratlamok, haqoratlangan, haqoratli kabilarni keltirish mumkin. Ingliz tilida ham insulting, insult on kabilar birlamchi insult konseptining hosilalaridir.

Mojaroli vaziyatlar haqoratning koʻp bora ishlatilishi bilan tavsiflanadi. Haqoratli nutqning yuzaga kelishiga taʼsir qiluvchi bir qancha omillarni hisobga olish zarur:

1. Adresat va adresant. Haqoratlovchi va haqorat yoʻnalgan shaxsning ijtimoiy mansubligi, kasbi, maʼlumoti, kelib chiqishi, qaysi etnik guruhga mansubligi, qiziqishi, eʼtiqodi, qadriyatlarini, dunyoqarashi, xulq-atvori, odobi, jinsi, yoshi, yashash tarzi, emotsional holati, jismoniy, ruhiy, aqliy nuqsonlariga doir maʼlumotlar muhimdir. Shuningdek, haqoratli nutq sodir boʻlishidan avvalgi ularning oʻrtasidagi munosabat, yaʼni bir-birini tanishi, qarindoshligi, doʻstligi, qoʻshnichiligi yoki umuman notanish ekanligi.

2. Haqoratli nutqni yuzaga keltiruvchi sabab. Sabablar turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, suhbatdosh tomonidan ko'rsatilgan hurmatsizlik, jismoniy yoki ruhiy ziyat, yetkazilgan moddiy yoki ma'naviy zarar kabilar.

3. Adresatning maqsadi, ya'ni, adresat haqoratni nima maqsadda bayon etishi, u orqali yetishmoqchi bo'lgan niyati. Haqoratli nutqdan birlamchi maqsad adresantni kamsitish, uning qadrini pasaytirish bo'ladi. Nutq vaziyatiga qarab tahdid, qo'rqitish, tanbeh berish kabi ikkilamchi maqsadlar ham aniqlanadi.

4. Haqorat vositasi. Haqoratni ifodalovchi lisoniy birliklar: leksemalar, frazeologik birliklar, maqollar, sintaktik qurilmalar, ohang kabilar.

5. Haqoratli nutq sodir bo'lgan paytdagi muhit. Bunda nutqning rasmiy yoki norasmiy holatda sodir bo'lishi, atrofda boshqa kishilarning mavjudligi, adresat va adresant orasidagi masofa, jamiyatning ijtimoiy ahloq me'yorlari kabilar hisobga olinishi kerak.

“Haqorat” huquqiy normasini aniqlashda quyidagi elementlar muhim ahamiyatga ega bo'lib, uning qanday ijtimoiy qadriyatlarga zarar yetkazganligi, jamoatchilik bilan aloqalar turi, nimaga yoki kimga bevosita zarar yetkazilganligi, haqorat qilish uchun qanday usullardan foydalanilganligiga asoslanadi.

Invektivalarni qo'llanilishiga ko'ra quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

1. Kishilarni ularning tanasidagi nuqsonlari: cho'loq, kalta, g'ilyay, shapko'r, ko'r, xomsemiz, kal, kar, qiyshiq, bukri, shalpangquloq, piskako'z;

2. Kasallikning nomi: moxov, pes, sil, sifilis, koronavirus; scaly-pedikulyoz bilan kasallangan odam haqida.

3. Kishining e'tiqodi: kofir, murtad, shakkok, imonsiz; infidel, apostate.

4. Kishining rangi: sariq, qora, xabash; black, yellow.

5. Milliy kelib chiqishi: sart, qashqari, andi, tatar (tatar bor joyda xatar bor), tojik (tojikdan do'sting bo'lsa yoningda oyboltang bo'lsin); yellow bastard – xitoylik; qo'rqqoq.

6. Irqi: lo'li; negro.

7. Jinsi: gondon (erkaklarga nisbatan haqorat, ingliz tilidagi condom so'zi rus tili orqali o'zbek tiliga kirib kelgan), xezalak, tungi kapalak; lance (erkaklar jinsiy a'zosi), cunt parcel (xoriyda fohishaxonaga sotilgan ingliz ayoli), poke (yengiltak ayol), cunttable (jismoniy jihatdan jozibali ayol), sissie (xotinsifat erkak).

8. Jinsiy orientasiyasi: hajiqiz, kissing fish (lesbian).

Ingliz tili matnlarida etnik invektivalar ko'p uchraydi. Etnik invektivalar kishining irqi, uning kelib chiqishiga qaratilgan bo'ladi. Ushbu invektivalardan foydalanish insonning “qadr-qimmatini” hurmat qilishdek ijtimoiy me'yorlarga zid bo'lib, irqiy yoki jinsiy kamsitishning har qanday shakllariga yo'l qo'yilmasligi kerakligini anglatadi. Amerika Qo'shma Shtatlarida bunday jinoyatlar “Hate crime” (so'zma-so'z tarjima qilinganda “nafrat jinoyati”) deb nomlangan. Bu so'z birikmasida “nafrat” atamasi chalg'itishi mumkin. “Hate crime” to'g'risidagi qonunda “nafrat” so'zi g'azab, g'azab yoki umuman yoqtirmaslikni anglatmaydi. Shu nuqtai nazardan, “nafrat” qonun bilan belgilanadigan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan odamlarga yoki guruhlariga nisbatan tarafkashlikni anglatadi. Nafrat jinoyati to'g'risidagi qonunlarda jabrlanuvchining qabul qilgan yoki haqiqiy, o'zi

mansub bo‘lgan irqi, rangi, dini, milliy kelib chiqishi, jinsiy orientasiyasi, jinsi yoki nogironligiga qaratilgan haqoratlar taqiqlanadi<sup>12</sup>.

G.V. Kusov haqoratni amalga oshirish niyatining ochiqligiga qarab rus tilida uning quyidagi turlarini aniqlagan: to‘g‘ridan-to‘g‘ri haqorat qilish, bilvosita haqorat qilish, yashirin haqorat qilish, instrumental verbal tajovuz (haqorat yordamchi xarakterga ega), emotsional verbal tajovuz (haqorat maqsadida emas).<sup>13</sup>

Keltirilgan haqorat turlari o‘zbek va ingliz tillari uchun umumiydir. Shu bilan birga har ikki tilning o‘ziga xos tomonlari bor.

Sensirash. Sensirash ham o‘zbek madaniyatida haqoratning bir turi hisoblanadi. Ingliz tilida “sen” va “siz” so‘zlari yolg‘iz “you” so‘zi bilan berilgani uchun, unda haqorat ma‘nosi yo‘q.

Ingliz tilida esa hazil orqali kishining kamchiliklari ustidan kulish jocular insult (hazilona haqorat) deb aytiladi.

“Ungrammatical twaddler, was it, Sir?” said Pott.

“Yes, Sir, it was,” replied Slurk; “and *blue bore*, Sir, if you like that better; ha! ha!”

Mr. Pott retorted not a word at this jocose insult...<sup>14</sup>

Ingliz tilidagi xlonifa tushunchasiga e‘tibor qaratsak.

Xlonifa. Xlonifa tushunchasining asl kelib chiqishi Afrikaning janubiy qismida joylashgan ayrim xalqlarning tillariga borib taqaladi. Turmushga chiqqan ayol oilasidagi erkaklar, jumladan qaynotasini ismini aytmaslik orqali unga hurmat ko‘rsatgan bo‘ladi. Shuning uchun erkakning ismini o‘rniga boshqa so‘z yoki tovushlardan foydalanib chaqiriladi. Aksincha bo‘lganida esa uni haqoratlagan hisoblanadi. Aynan shu hodisa xlonifa deb nomlangan. Bunga o‘xshash holat o‘zbek muloqot odatida ham uchraydi. O‘zbek ayollari turmush o‘rtoqlari ismlarini aytmaydilar. Turmush o‘rtog‘ining ismi bilan murojaat qilishgina emas, erim deb atash ham tabu holatida (albatta, zamonaviy muloqot odatlari muayyan korrektivalarga uchragan). Ammo siyosiy va rasmiy diskurslardagi xlonifa ingliz muloqot odatida keng tarqalgan:

Masalan, “Let’s go Brandon” iborasi Amerika Qo‘shma Shtatlarining amaldagi prezidenti Jo Baydenga nisbatan ishlatilgan tabulashgan o‘ta qo‘pol haqorat “Fuck Joe Biden” ning o‘rniga qo‘llanadigan iboradir. Tilshunos olim Jon MakVoter ushbu hodisani xlonifa – taqiqlangan so‘zning o‘rnini almashtirish, deya baholagan<sup>15</sup>. Haqoratning bu turida tabu hisoblangan iboraning o‘rniga boshqa bir ijobiy ma‘noga ega bo‘lgan so‘z yoki turg‘un birikmadan foydalaniladi. Bu birikmaning hamma uchun ma‘lum bo‘lgan konnotativ ma‘nosi orqali esa haqorat yuzaga chiqadi.

O‘zbek tilida haqorat so‘zlarning qo‘llanishida o‘ziga xos bir holat bor ki, biz uni emotsional tusni kuchaytirish usuli deb nomladik. O‘zbeklar qattiq hayajon, zavq ifodasi uchun ham haqorat so‘zlaridan foydalanadilar: voy onangni, uh jalab,

<sup>12</sup> Learn About Hate Crimes//<https://www.justice.gov/hatecrimes/learn-about-hate-crimes> (murojaat sanasi 12.05.2023)

<sup>13</sup> Кусов Г. В. Оскорбление как иллюкутивный лингвокультурный концепт: дисс... канд. фил. наук. – Краснодар, 2004. – 245 с. – С. 135-139.

<sup>14</sup> Dickens Charles. The Pickwick Papers. – London: Penguin Classics, 2012. – 995 p. – P.728. //[https://archive.org/details/pickwickpapers0000dick\\_f9g5](https://archive.org/details/pickwickpapers0000dick_f9g5) (murojaat sanasi 24.05.2023)

<sup>15</sup> Let’s Go Brandon //[https://en.wikipedia.org/wiki/Let%27s\\_Go\\_Brandon#](https://en.wikipedia.org/wiki/Let%27s_Go_Brandon#) (murojaat sanasi 24.06.2023)

haromi-ey, voy blyad... Masalan, Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanida hissiyotning "anjancha" chapani ifodasini ko'ramiz: "– Ha, Zebinisaxon! Yigitchaning shu "xon" degan qo'shimchasida "mening Zebinisam" degan ma'noda bir maqtanish, bir g'urur ohangi bor edi. Bu ohang juda ochiq eshitilgan bo'lsa kerakki, Xolmat darrov fahmiga bordi va "a, haromi-ey!" deganday qilib unga qaragach: – Yurakdan urgan ekan-a!.. – dedi"<sup>16</sup>. Bu o'rinda "haromi" so'zi Xolmat zavqining o'ziga xos ifodasidir.

Shunday qilib, kishilar orasidagi munosabatda tajovuzli nutq turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Haqoratdan ko'zda tutilgan maqsad, haqoratlovchi va haqoratlangan kishilar o'rtasidagi munosabat, haqoratning verballashuv vositasi, undagi mavjud lug'aviy va konnotativ ma'nolar haqoratning turini aniqlashda muhim o'rin egallaydi.

**Ishning ikkinchi bobi "Haqorat nutq jarayonini nomlovchi birliklar" deb nomlanib "O'zbek tilida haqorat nutq jarayonini nomlovchi leksik-frazeologik birliklar" va "Ingliz tilida haqorat nutq jarayonini nomlovchi leksik-frazeologik birliklar" borasidagi tahlillarga bag'ishlangan.**

Behayo so'zlar – obsen so'zlar – haqoratli bo'lgan so'zlarning ko'lami har ikki tilda ham keng bo'lib, uning tarkibiga kiradigan so'zlarning aniq chegarasi hanuz aniqlanmagan.

Kishining qadr-qimmatini, sha'nini pasaytirish, kamsitish ma'nolarida ishlatiladigan haqorat, haqorat qilmoq, haqoratlamoq, tahqir, tahqirli, tahqiromuz, kufr, dakki, dashnom, dakki-dashnom, tajovuz, malomat, tazyiq, zo'ravonlik, piching, ta'na, kesatiq, kinoya, mazax, zalil, zillat, ihonat, mazzamat, dahanaki jang, masxara, tahqir qilmoq, tahqirlamoq, kamsitmoq, qarg'amoq, so'kmoq, so'kinish, urishmoq, kesatmoq, sensiramoq, baqirmoq, bulg'amoq, sasimoq, tishlamoq, toptamoq, hamiyatiga tegmoq, boloxonador qilib so'kish, bo'ralab so'kmoq, og'zini peshtaham qilmoq, xor qilmoq, bir/sariq chaqaga olmaslik, loy chaplamoq, masxara qilmoq, -dan olib, -ga solmoq, ilon po'st tashlaydigan, piching otmoq, yerga urmoq, do'laymoq, yuziga tuf demoq// affront, offence, offend, offensive, indignity, abuse v.n., vituperation, invective, obloquy, obscene, humiliate, snub, revile, scold, slur, dishonor, sarcasm, put-down, mock, shout, blasphemy, vulgar insult, outrage sb's honor, smack in the face, take smth lying down, call someone names, get your own back, barrack to boo or hiss, bite one's thumb at, catcall, cock a snook, fork the fingers, give the bird kabi so'z va iboralarda "haqorat" semasi mavjud. Bu lisoniy birliklar haqorat jarayonini nomlovchi birliklar deb ataladi. Dissertatsiyada bu birliklarning bafurja tahlili har ikki tildan olingan ko'plab misollar asosida olib borilgan.

Haqorat semali so'zlar o'zbek va ingliz tillarida bir biriga o'xshash vazifa bajaradi, shu bilan birga har bir tilning o'ziga xos jihatlari ham bor. Xususan, ingliz tilida haqorat nomini va jarayonini birdek ifodalovchi so'zlar borki, bunday holat o'zbek tili uchun xos emas. Masalan,

**Affront** – shaxs yoki muassasaning sha'nini kamsitishga olib keladigan nutq yoki harakat; odatda, hurmatsizlikning ochiq namoyon bo'lishi. "Affront" so'zi

---

<sup>16</sup> Чўлпон. Кеча ва кундуз. – Тошкент: Шарқ, 2000 – 287 б. – Б.34 //http://ferlibrary.uz/f/cholpon\_kecha\_va\_kunduz\_roman.pdf (muroj'at sanasi 24.06.2023)

haqorat yoki hurmatsizlik jarayonini nomlaydigan, hamda, ushbu harakatni anglatadigan soʻz hisoblanadi. Yaʼni, bu soʻz ham ot, ham feʼl shaklida qoʻllaniladi.

“Abuse” ham ot, ham feʼl boʻlib keladi. Feʼl boʻlib kelganda “suisteʼmol qilish”, “zoʻravonlik qilish” va “haqoratlash” kabi maʼnolarga ega. Yozuvda bir-biridan farqlanmaydi, lekin talaffuzida tafovut mavjud.

Shuningdek, ingliz tilida haqoratli soʻzlarda ijtimoiy tus yuqori: kishi qoʻllayotgan haqorat soʻzlariga qarab ham kishining ijtimoiy kelib chiqishi haqida baho berish mumkin.

“Invective” soʻzi haqoratli nutq va soʻz bilan hujum qilish maʼnolarida keladi. Koʻpincha, “insult” сўзига maʼnodosh soʻz sifatida qoʻllaniladi. Hukumatga, maʼlum bir kishiga qaratilgan haqoratni anglatadi. Yevropa xalqlari mentaliteti uchun xos boʻlgan shaxsiy hudud masalasi – shaxsiy hududning buzilishiga doir haqoratlar ham koʻproq ingliz tili tabiatiga xosdir: insonning erkinligini cheklash uni haqoratlash bilan tenglanadi. Shu tarzda haqorat “indignity” soʻzi билан ifodalanadi.

Ingliz tilida maxsus ifodalovchisi boʻlgan “humiliating words” (kamsitish soʻzlari) kishiga uni kamsitadigan gaplarni aytishga majburlash orqali uni haqoratlash, gʻururini sindirishni anglatadi.

Kishiga nisbatan sovuq muomalada boʻlish yoki uni rad qilish orqali mensimaslik ham haqoratning bir koʻrinishidir. Ingliz tilida bunday haqoratlarni ifodalashda “snub” soʻzidan foydalaniladi.

Oʻzbeklarda esa shaxsiy holatlardagi haqorat kuchliroq qabul qilinadi. Masalan, kishining hamiyatiga tegadigan gap aytish ham unga nisbatan haqoratdir. Odatda bunday gaplar kishiga kuchli taʼsir qiladi, uning gʻazabini qoʻzgʻaydi.

Zamonaviy tilda “til tekkizmoq”, “shaxsiyatiga tegmoq”, “dashnom bermoq” feʼllarining maʼnosi ham “haqorat” semasi bilan xarakterlanadi.

Bir millatda haqorat hisoblangan soʻz, boshqa bir millatda haqoratni anglatmasligi mumkin. Bunga ijtimoiy-madaniy meʼyorlar, kishilar orasidagi ijtimoiy munosabatlar, nutq vaziyati kabi omillar taʼsir qiladi.

**Ishning uchinchi bobi “Oʻzbek va ingliz tillarida “haqorat” konseptining voqelanishi”ni kuzatishga bagʻishlangan va quyidagi qismlardan iborat: “Haqorat” konseptini ifodalovchi leksik birliklar”, “Haqoratning frazeologik birliklarda voqelanishi”, “Haqorat” konseptining paremiologik vositalarda aks etishi”.**

Haqoratni yuzaga chiqishida leksik birliklar vosita sifatida xizmat qiladi. Bu jarayonda normativ boʻlmagan leksika tarkibidagi birliklar alohida ahamiyatlidir. Chunki ular odob-axloq meʼyorlariga, etika talablariga boʻysunmagani uchun ham normativ hisoblanmaydi. Ularning maʼno tarkibidagi salbiy-hissiy boʻyoq orqali adresant haqoratni adresatga yetkazib beradi. Tilda bu leksik birliklarning bir nechta turlari bor: invektiv, peyorativ (derogativ), obsen birliklar.

Invektiv birliklar deganda, qoʻpol va soʻkinish soʻzlar tushuniladi. Bu lugʻat turidan koʻp maqsadlarda foydalaniladi. Ular faqatgina haqorat uchun ishlatiladi deyish notoʻgʻridir. Masalan, invektiv soʻz maqtov maqsadida ham qoʻllanilishi mumkin. Bunda invektiv maʼno butkul yoʻqolmaydi, balki aytilgan jumlagi hissiy maʼno yuklaydi. Katartik maqsadni amalga oshirish uchun, yaʼni kishi gʻazabini

chiqarib yuborish uchun inektivadan foydalanishi mumkin. Masalan, kishi bexosdan turtinib yiqilishi mumkin. Bundan hosil bo'lgan norozilik ifodasi sifatida inektiv so'zni ishlatadi. Shu bilan g'azabi bosilib, yengillaydi. Peyorativ birliklar tildagi (ayrim lug'atlarda "derogativ" deb ham aytiladi) salbiy baho ifodalovchi so'z va so'z birikmalarini anglatadi. Bunday birliklar kishining noroziligi yoki yoqtirmaslik tuyg'ularini ifodalab, kamsitish so'zlari ham deyiladi. Bunday so'zlar ayrim lug'atlarda belgilangan bo'ladi. O'zbek tilining izohli lug'atida bunday so'zlar belgilanmagan. Ingliz tili izohli lug'atlaridan Oxford Advanced Learner's Dictionary da esa derogatory atamasi bilan belgilab berilgan. Derogativlar asosan, ot, sifat, ravish, fe'l so'z turkumiga kiruvchi so'zlar, shuningdek, kamsitish maqsadida so'zga qo'shiladigan qo'shimchalardan tarkib topadi. Salbiy bo'yoqqa ega bo'lgan so'zlar bo'lgani bilan derogativ so'zlarning barchasini haqorat uchun ishlatish mumkin emas. Masalan, keksa kishilarning yoshi tufayli kamsitish amaliyotini anglatadigan ageism so'zi ham lug'atda derogativ deb belgilangan: ageism n [U] (derog) the practice of treating people unfairly because of their age, esp because they are considered too old<sup>17</sup>. Lekin bu so'z kishiga xos bo'lgan sifatni anglatmagani uchun haqorat material sifatida nutqda qo'llab bo'lmaydi. Ya'ni, so'zlovchining adresatga salbiy baho munosabatini anglatmaydi.

Ishda ingliz va o'zbek tillaridagi peyorativ so'zlar ko'lami, ularning aynan kishining qaysi jihatlarini yoritishini aniqlash maqsadida Oxford Advanced Learner's Dictionary lug'ati va o'zbek tilining izohli lug'atidan haqorat material sifatida ishlatish mumkin bo'lgan kishiga xos bo'lgan salbiy sifatni anglatuvchi so'zlar tanlab olindi va bafurja tahlil qilindi. Har ikki tilda ham kishilarning salbiy fe'l-atvorini anglatuvchi peyorativlar soni boshqalariga qaraganda ancha yuqori, deyarli umumiy sonning yarmini tashkil etadi. Semantik tarkibiga ko'ra bu guruh peyorativlar kishining shaxsiy xarakter xususiyatlari (arrogant, boor, clueless, covetous, cranky, cruel, cunning; badjahl, badfe'l, landovur, badxulq, dovdir, ziqna kabi), salbiy ijtimoiy fe'l-atvor (barefaced, battleaxe, bitch, bitchy, bossy, brazen, bugger, bully, bumptious, bum, cad, carpet-bagger, claw, clod, clown, contrary, coquette, crawler; bezori, bo'htonchi, ishbuzuqi, qasamxo'r, xoin kabilar), jinsga oid fe'l atvor (effeminate, hog, virago, womanish; hajiqiz, hezalak, erkakchaliq, xotinchaliq kabilar)ni anglatadi. Keyingi o'rinda har ikki tilda kishining tashqi ko'rinishini tavsiflovchi so'zlar turadi. Bu so'zlarning semantikasidan ma'lum bo'lishicha, qiyoslanayotgan ikkala tilda ham xunuk yuz mahluqqa o'xshatiladi (mahluq, beast). O'zbek tilining izohli lug'atida kishilar guruhiga qaratilgan haqoratni anglatuvchi peyorativlar aniqlanmadi. Lekin, badiiy asarlar matnida bunga misollarni topish mumkin:

*Hamma yoq ari inidek g'uvillab ketdi. Yangi rais esankirab qoldi.*

– *Jim! – dedi minbarni mushtlab. Tishe! Podaga o'xshagan...*

*Pastdagilar tinchish o'rniga battar avjiga chiqdi:*

– *Biz poda bo'ldikmi endi?*

– *E, o'rgildik sendaqa podachidan!*<sup>18</sup>

<sup>17</sup> Hornby A. S. Oxford Advanced Learner's Dictionary of Current English/Editor Jonathan Crowther. – Oxford: Oxford University Press, 1995. – 1475 p. – P. 23.

<sup>18</sup> Хошимов Ў. Икки эшик ораси. –Тошкент: Илм-зиё-заковат нашриёти, 2019. – 544 бет. – Б. 57.

Poda – chorva mollar to‘dasini anglatadi. Poda leksemasi tarkibidagi “hayvon”, “mol”, “ongsiz harakat qiluvchi” semalari yordamida haqorat yuzaga chiqmoqda.

